

SURXONDARYO SHAROITIDA YARATILGAN “SALOVOT” O‘RIK
NAVINING STRESS OMILLARGA MOSLASHUVCHANLIGISultanov Sirojiddin Nuraliyevich ¹Jurayev Erkin Baxtiyorovich ²Termiz iqtisodiyot va servis universiteti ¹Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti ²sirojiddin_sultanov@tues.uz. <https://orcid.org/0009-0009-3441-2605>.

Annotatsiya. O‘zbekistonning turli iqlim sharoitlariga moslashuvchan, eksportbop, yuqori sifatli, serhosil, erta pishar, yuqori hosildor, tashishga yaroqli, sovuqqa va qurg‘oqchilikka nisbatan bardoshli, kasallik va zararkunandalarga chidamli belgilarga ega bo‘lgan o‘rik navlarini yetishtirish, yangi navlarni yaratish yo‘nalishidagi seleksiya ishlari dolzarb hisoblanib, ichki va tashqi iste‘mol bozorini barqarorligini ta‘minlash, o‘rik mevalarining xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini ham oshiradi. Mazkur maqolada o‘rik mahalliy kolleksiya bog‘laridan tabiiy va iqlim sharoitlariga chidamli, qimmatli biologik va xo‘jalik belgilariga ega bo‘lgan o‘rikning “Salovot” navi biologik xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot Surxondaryo viloyati sharoitida olib borilib, yangi navning hosildorligi, erta pisharligi, qurg‘oqchilik va sovuqqa nisbatan chidamliligi o‘rganildi. Surxondaryo viloyati sharoitida mahalliy o‘rik navlarini tanlash, ularning istiqbolli navlarini aniqlab, ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat.

Kalit so‘zlar: sovuqqa va qurg‘oqchilikka chidamli nav, yangi Salovot navi, seleksiya, hosildorlik, biologik xususiyatlar, moslashuvchanlik.

Kirish. Meva ekinlaridan biri bo‘lgan o‘rikdan muttasil va yuqori hosil olib turishda mahalliy sharoitlarga moslashgan eng yaxshi mahalliy navlardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Raqobat ortib borayotgan, iste‘molchilar o‘rik mahsulotlarining sifati va qiymatiga yuqori talablar qo‘yayotgan sharoitda o‘rik ekinlarining zararkunanda va kasalliklarga chidamli, serhosil, oziqaviy va texnologik sifatlari qimmatli bo‘lgan hamda tashqi muhitning noqulay sharoitlariga ekologik jihatdan keng doirada moslasha oladigan navlarini tez sur‘atlarda yetishtirib chiqarish va joriy etish juda zarurdir. Mahalliy navlarning qimmatli xususiyatlarini saqlab qolish, dehqon va fermer xo‘jaliklarini, shuningdek, tomorqa xo‘jaliklarini ekinlik sifati yuqori bo‘lgan sof mahalliy urug‘lar va ko‘chatlar bilan ta‘minlash nihoyatda dolzarb masaladir.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar “Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур” (1999), qurg‘oqchilikka chidamlilik Гончарова Е.А (2011), “Методика полевого опыта” Доспехов Б.А., (1985) kabi uslub va qo‘llanmalar asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot o‘tkazilgan yillarning 2022-yilida “Salovot” navi bo‘yicha kuzatuvlar natijasida gul kurtaklarining bo‘rtishi 12-fevralda, kurtaklarning ochilishi 18-fevralda, gullash 28-fevralgacha, gullash yakuni esa 6-martgacha davom etganligi bilan yaratilgan yangi navning ertapisharligini belgilab beradi. Nazorat variantidagi Subhoni navi esa 4-17 mart oralig‘ida gullashi va navlar orasida gullash fazalari o‘rtasidagi farq 11-14 kunga teng bo‘lganligi bilan yaratilgan yangi navning o‘rtapisharligini belgilab beradi. Tadqiqotlar yana shuni ko‘rsatdiki, o‘rik daraxti shoxlariga to‘g‘ri ishlov berish natijasida o‘simliklar quyosh nurlarini yaxshiroq qabul qilgan va bu barg o‘lchami, meva sifati va o‘sishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi ma’lum bo‘ldi.

O‘rik yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha tadqiqotlarda, ayniqsa, qurg‘oqchilikka chidamlilik darajasini hisobga olish zarurligi ko‘p o‘rganildi. Qurg‘oqchilik va issiqqa chidamlilik bo‘yicha o‘rik bodomdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

U yoz oylarida, ayniqsa iyulda o‘rtacha harorat 30 °C dan oshganda va maksimal harorat 45-47°C gacha ko‘tarilganda ham yaxshi o‘sadi. Ozbekiston janubiy hududi hisoblangan Termiz tumanida yaratilgan “Salovot” navi ham o‘rtacha 40-49 °C gacha haroratda ham yaxshi rivojlanishi tadqiqot jarayonida aniqlandi. Tadqiqotlardan shular aniqlandiki: shoxlarning pastki qavatidagi barglar qurg‘oqchilikka yuqori darajada moslashgan, chunki suv tanqisligi boshlanganda ularda suv harakati va transpiratsiya sekinlashadi. Natijada o‘simlik suv sarfini kamaytirib, qurg‘oqchilikka bardoshlilikni oshiradi. Iqlimning fasliy o‘zgarishlari o‘simliklarda morfologik va fiziologik o‘zgarishlarni yuzaga keltiradi. Hosildorlik, sovuqqa chidamlilik, meva sifati - barchasi o‘simlikning muhitga moslashish darajasiga bog‘liq. O‘simliklar sovuqqa tayyorlanish (chiniqish) jarayonida, ayniqsa kuz va erta qishda, ularning sovuqqa chidamliligi oshadi. Bu paytda o‘simlikda shakar to‘planishi kuzatiladi - bu chiniqishning birinchi bosqichi hisoblanadi. 2-5 °C haroratda esa ikkinchi bosqich - muzlashga qarshi chidamlilik boshlangan bo‘ladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘rikning “Salovot” navi kurtaklari -0,8 dan -4,7 °C gacha, gullari -0,4 dan -2,2 °C gacha, yangi hosil esa -0,5 dan -1,7 °C gacha past haroratga bardosh bera olishi o‘rganildi.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, o‘rikning “Salovot” navi Surxondaryo viloyati iqlim sharoitiga yuqori darajada moslashgan nav ekanligi aniqlandi.

Tajriba davomida “Salovot” navi erta gullashi, o‘rtacha erta pisharligi, yuqori hosildorligi hamda qurg‘oqchilik va sovuqqa nisbatan chidamliligi bilan ajralib turadi. Barglarning pastki qavatida suv tanqisligiga moslashish mexanizmining rivojlanganligi natijasida o‘simlik transpiratsiyani kamaytirib, suvni tejab ishlatish xususiyatini namoyon etdi.

Tajriba natijalariga ko‘ra, “Salovot” navi kurtaklari $-0,8$ dan $-4,7$ °C gacha, gullari $-0,4$ dan $-2,2$ °C gacha, mevalari esa $-0,5$ dan $-1,7$ °C gacha bo‘lgan past haroratga bardosh bera oladi. Bu esa navning sovuqqa nisbatan barqarorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, nav $40-49$ °C gacha bo‘lgan yuqori haroratda ham yaxshi rivojlanishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, “Salovot” o‘rik navi yuqori hosildor, ekologik stress omillariga chidamli, bozorboq mevalarga ega istiqbolli seleksiya yutug‘i bo‘lib, Surxondaryo viloyati va O‘zbekistonning janubiy hududlarida keng miqyosda yetishtirish uchun tavsiya etiladi.

Adabiyotlar

1. Qayumov A.K., Buriev X.Ch. Meva ekinlari seleksiyasi, navshunosligi va ko‘paytirish usullari. Yosh seleksionerlar to‘garagiga mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2020. – 72 b.

2. Buriyev X.Ch., Jurayev E.B. “Mevali va rezavor mevali o‘simliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi”. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, 2014. – 54 b.

3. Степанов С.М. Плодовый питомник. – Москва: Колос, 1981. – 256 с.

4. Sultanov S.N., Jurayev E.B. Apricot growing and selection of grafts. – Journal of Agriculture & Horticulture Zenodo, 2024. – T.4, Вып.10, сс. 61–63.

5. Гончарова Е.А. Изучение устойчивости и адаптации культурных растений к абиотическим стрессам на базе мировой коллекции генетических ресурсов. – СПб.: ВИР, 2011. – 353 с.

6. Витковский В.Л. Плодовые растения мира. – СПб.: Издательство «Лань», 2003. – 592 с.

7. Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – М.: Колос, 1985. – С. 223-228.